

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASH JARAYONIDA O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich

Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

+99894-216-84-24

ORCID iD: 0009-0009-7229-3926

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda o'qish kompetensiyasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik yondashuvlar, uch bosqichli o'qish modeli (pre-reading, while-reading, post-reading) asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: o'qish kompetensiyasi, kasbiy tayyorgarlik, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, pedagogik yondashuvlar, uch bosqichli o'qish modeli, lingvodidaktika.

THE ROLE OF DEVELOPING READING COMPETENCE IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich

Senior Lecturer, Namangan State Institute of Foreign Languages, PhD

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

+99894-216-84-24

ORCID iD: 0009-0009-7229-3926

Abstract. This article highlights the theoretical and methodological foundations of developing reading competence in the professional training of future English teachers. The study analyzes the essence of reading competence, its components, and its role in the professional competence of an English teacher. In addition, effective pedagogical approaches aimed at developing reading competence in higher education institutions are examined, including a system of exercises based on the three-stage reading model (pre-reading, while-reading, post-reading).

Keywords: reading competence, professional training, future English teacher, pedagogical approaches, three-stage reading model, linguodidactics.

РОЛЬ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ЧТЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Солиев Умиджон Юлчирович

*старший преподаватель, Наманганский государственный институт
иностранных языков, PhD*

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

+99894-216-84-24

ORCID iD: 0009-0009-7229-3926

Аннотация. В статье освещаются теоретико-методические основы развития компетенции чтения в процессе профессиональной подготовки будущих преподавателей английского языка. В исследовании анализируются сущность компетенции чтения, её компоненты, а также роль в профессиональной компетентности преподавателя английского языка. Кроме того, рассматриваются эффективные педагогические подходы, направленные на развитие компетенции чтения в учреждениях высшего образования, включая систему упражнений, разработанную на основе трёхэтапной модели чтения (*pre-reading, while-reading, post-reading*).

Ключевые слова: компетенция чтения, профессиональная подготовка, будущий преподаватель английского языка, педагогические подходы, трёхэтапная модель чтения, лингводидактика.

KIRISH

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda xalqaro akademik va kasbiy muloqotning kengayishi xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini mukammal egallagan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Ingliz tili bugungi kunda nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ilm-fan, ta'lim, texnologiya va innovatsiyalar tili sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bois ingliz tilini o'qitadigan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi zamonaviy ta'lim tizimining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u lingvistik, metodik, kommunikativ hamda madaniyatlararo kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar tizimida til ko'nikmalarining barcha turlari (*tinglab tushunish, gapirish, yozuv va o'qish*) o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlantirilishi zarur. Ayniqsa, o'qish kompetensiyasi ingliz tili o'qituvchisining kasbiy faoliyatida yetakchi o'rin egallaydi, chunki u metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar, darsliklar va zamonaviy pedagogik resurslar bilan mustaqil ishlash imkonini beradi.

O'qish kompetensiyasi tilni o'zlashtirishning passiv ko'nikmasi sifatida emas, balki murakkab kognitiv jarayon sifatida talqin etiladi. U matnni tushunish, tahlil qilish, baholash va talqin etish kabi intellektual faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Chet tillarni bilishning umumyeвроpa kompetensiyalari (CEFR) hujjatlarida ham o'qish kompetensiyasi shaxsning funksional savodxonligini, mustaqil ta'lim olish qobiliyatini va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi [7]. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy o'sishi va uzluksiz ta'lim olishiga mustahkam zamin yaratadi.

Shuningdek, o'qish kompetensiyasi pedagogik faoliyatda refleksiya va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini ham kengaytiradi. Vygotskiyning sotsiokonstruktivistik nazariyasiga ko'ra, bilim o'zlashtirish jarayoni ijtimoiy tajriba va matn bilan faol muloqot orqali amalga oshadi [5]. Bu esa o'qish jarayonini faqat axborot qabul qilish emas, balki bilimni qayta ishlash va yangi ma'nolar yaratish jarayoni sifatida tashkil etishni taqozo etadi.

Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'qish kompetensiyasini tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadli shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. An'anaviy yondashuvlarda o'qishga yetarli e'tibor berilmaganligi, ko'pincha grammatik va leksik materiallar ustuvor hisoblangani o'qish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelmoqda. Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar esa o'qish kompetensiyasini kommunikativ va kasbiy yo'naltirilgan asosda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'qish kompetensiyasini shakllantirishning samarali metod va yondashuvlarini aniqlash hamda ularning amaliy natijalarini ilmiy-nazariy va tajriba-sinov asosida tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'qish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u kompleks va tizimli metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy

va empirik metodlarning o'zaro uyg'unligi ta'minlandi, bu esa o'rganilayotgan muammoni har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini lingvodidaktika, pedagogika va xorijiy tilni o'qitish metodikasiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Nazariy tahlil metodi orqali o'qish kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasidagi o'rni chuqur tahlil qilindi. Xususan, Chet tillarni bilishning umumyeвроpa kompetensiyalari (CEFR) hujjatlarida belgilangan o'qish bo'yicha ko'rsatkichlar, kommunikativ va kognitiv yondashuvlar o'rganildi [7].

Taqqoslash metodi yordamida o'qish kompetensiyasini shakllantirishga doir an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar solishtirildi. Jumladan, grammatika-tarjima usuli asosidagi o'qish mashqlari bilan kommunikativ va konstruktivistik yondashuvlarga asoslangan mashqlar tizimi qiyosiy tahlil qilindi. Bu metod orqali o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda bosqichli va faol o'qish strategiyalarining ustun jihatlari aniqlandi [4].

Tadqiqotning asosiy empirik qismi pedagogik tajriba-sinov metodi asosida amalga oshirildi. Tajriba oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilib, unda o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar tizimi amaliyotga joriy etildi. Tajriba jarayonida talabalar bilan auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim faoliyati hamda kasbiy yo'naltirilgan matnlar asosida ishlash tashkil etildi.

Talabalarning o'qish faoliyatidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida kuzatish va so'rovnoma metodlari qo'llanildi. Kuzatish orqali talabalarning matn bilan ishlash jarayonidagi faolligi, o'qish strategiyalaridan foydalanish darajasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari tahlil qilindi. So'rovnomalar esa talabalar o'qish jarayoniga bo'lgan munosabati, qiyinchiliklari va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy asoslash uchun statistik tahlil metodidan foydalanildi. Tajriba-sinov natijalari miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, o'qish kompetensiyasining rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi. Bu metod tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotda o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali modeli sifatida uch bosqichli o'qish modeli, ya'ni matn oldi - tayyorlov (pre-reading stage), matnni o'qib tushunish (while-reading stage) va matndan keyingi (post-reading stage) bosqichlari asos qilib olindi. Ushbu model Bruner va Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan konstruktivistik yondashuvlarga tayanib, o'qish jarayonini faol va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi [5; 6].

Matn oldi - tayyorlov (pre-reading stage) bosqichida talabalarni matn mazmuniga tayyorlash, old bilimlarini faollashtirish va motivatsiyani oshirishga qaratilgan mashqlar qo'llanildi. Matnni o'qib tushunish (while-reading stage) bosqichida tanishuv o'qish (fluently-reading), o'rganuv (mutolaa) o'qish (close-reading), kuzatuv o'qish (skimming-reading) kabi o'qish strategiyalaridan foydalanildi. Matndan keyingi (post-reading stage) bosqichda esa tahlil, muhokama va ijodiy topshiriqlar orqali o'qilgan material mustahkamlandi. Ushbu metodik yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki kasbiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajriba-sinov jarayonida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan mashqlar tizimi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tajriba yakunlari talabalarning o'qish jarayoniga bo'lgan munosabati, matn bilan ishlash strategiyalari hamda kasbiy yo'naltirilgan o'qish malakalarida sifat jihatidan ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi.

Tajriba natijalariga ko'ra, talabalar ingliz tilidagi matnlarni tanishuv o'qish (fluently-reading), o'rganuv (mutolaa) o'qish (close-reading), kuzatuv o'qish (skimming-reading) ko'nikmalarini samarali egalladi. O'qish jarayonida ular matnning asosiy mazmunini tez anglash, muhim faktlar va tafsilotlarni aniqlash hamda matndagi mantiqiy bog'lanishlarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Bu holat Harmer tomonidan ta'kidlangan o'qish strategiyalarini maqsadli qo'llash tamoyillariga mos keladi.

Shuningdek, tajriba davomida talabalar asosiy g'oya va muhim axborotni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirdi. Matnni o'qib tushunish (while-reading

stage) bosqichida qidiruv o'qish (scanning) usullarining qo'llanilishi talabalarga matndan kerakli ma'lumotlarni tez va aniq topish imkonini berdi. Natijada, ularning akademik va kasbiy yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Bu esa Chet tillarni bilishning umumiyevropa kompetensiyalari (CEFR) hujjatlarida belgilangan o'qish kompetensiyasining funksional xarakterini tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kasbiy yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash malakalari shakllanganini ham ko'rsatdi. Talabalar pedagogik, metodik va ilmiy matnlarni o'qish jarayonida terminologik birliklarni anglash, matn mazmunini tahlil qilish va uni kasbiy faoliyat bilan bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Richards va Rodgerslarning fikriga ko'ra, kasbiy yo'naltirilgan o'qish til o'rganish jarayonini real kasbiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtiradi, bu esa o'rganish samaradorligini oshiradi [4].

O'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida talabalarning tanqidiy va tahliliy fikrlash darajasi ham sezilarli oshdi. Matndan keyingi (post-reading stage) bosqichda tashkil etilgan muhokama, savol-javob, bahs va ijodiy topshiriqlar talabalarni o'qilgan matn mazmunini baholash, muallif pozitsiyasini aniqlash va o'z fikrini asoslab bayon etishga undadi. Bu jarayon Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bilimni faol muloqot va refleksiya orqali o'zlashtirish tamoyiliga mos keladi [5].

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, Matn oldi - tayyorlov (pre-reading stage) bosqichi talabalarni matnni idrok etishga psixologik va lingvistik jihatdan tayyorlashda muhim rol o'ynadi. Mavzuga oid taxmin qilish, kalit so'zlar va terminlar bilan tanishtirish, savollar orqali motivatsiyani oshirish talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. Matnni o'qib tushunish (while-reading stage) bosqichida esa tanishuv o'qish (fluently-reading), o'rganuv (mutolaa) o'qish (close-reading), kuzatuv o'qish (skimming-reading) strategiyalarining uyg'un qo'llanilishi matnni chuqur tushunishga xizmat qildi. Matndan keyingi (post-reading stage) bosqichda amalga oshirilgan tahliliy va ijodiy topshiriqlar esa o'qilgan materialni mustahkamlash va uni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkonini berdi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari uch bosqichli o'qish modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini samarali rivojlantirishini ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda an'anaviy, asosan grammatika va tarjimaga yo'naltirilgan yondashuvlar kutilgan samarani bermaydi. Aksincha, uch bosqichli (pre-reading, while-reading, post-reading) hamda kommunikativ yondashuvlarga asoslangan metodik tizim bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar o'qish jarayonini passiv faoliyatdan faol va maqsadli kognitiv jarayonga aylantiradi, bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga va matn bilan faol muloqot qilishga undaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bosqichli o'qish modeli talabalarni matn bilan ishlashga tizimli ravishda tayyorlaydi. Matn oldi - tayyorlov (pre-reading stage) bosqichi bilimlarni faollashtirish va motivatsiyani oshirish orqali o'qishga psixologik tayyorgarlikni ta'minlaydi, while-reading bosqichi esa o'qish strategiyalarini ongli qo'llashga imkon yaratadi. Matndan keyingi (post-reading stage) bosqichi orqali talabalar o'qilgan materialni tahlil qilish, baholash va uni kasbiy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon Bruner tomonidan ilgari surilgan "izlanib o'rganish" (discovery learning) tamoyiliga to'liq mos keladi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish mashg'ulotlari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nafaqat til ko'nikmalarini, balki ularning kasbiy fikrlashini ham rivojlantiradi. O'qilgan matnlar asosida tashkil etilgan muhokamalar, bahslar va reflektiv topshiriqlar talabalarni pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarga yechim topish va o'z nuqtayi nazarini asoslab bayon etishga o'rgatadi. Richards va Rodgers ta'kidlaganidek, kommunikativ yondashuv tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashni ta'minlab, kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi [4].

Shuningdek, tadqiqot jarayonida kasbiy yo'naltirilgan matnlardan foydalanish talabalarning real pedagogik faoliyatga tayyorlanishida muhim omil

ekanligi aniqlandi. Metodik qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, dars ishlanmalari va pedagogik tajribaga oid matnlar bilan ishlash talabalarni bo'lajak kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradi. Bu holat Chet tillarni bilishning umumyeвроpa kompetensiyalari (CEFR) hujjatlarida belgilangan funksional va akademik savodxonlik tushunchalari bilan hamohangdir [7].

Tadqiqot natijalari Vygotskiyning sotsiokonstruktivistik nazariyasi bilan ham uyg'unlikda namoyon bo'ldi. Unga ko'ra, bilimlar ijtimoiy muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanadi [5]. O'qish jarayonida jamoaviy muhokama, guruhli ishlanmalar va refleksiya faoliyatlarining qo'llanilishi talabalar o'rtasida bilim almashinuvi va o'zaro o'rganishni kuchaytirdi. Bu esa o'qish kompetensiyasining chuqurroq va barqaror shakllanishiga olib keldi.

O'qish kompetensiyasini shakllantirish masalasida mahalliy metodist olimlar qarashlari ham tadqiqot natijalari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xususan, J. Jalolov xorijiy til o'qitish metodikasida o'qish faoliyatini tilni o'zlashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida talqin etib, uni kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida muhim omil deb hisoblaydi. Olimning ta'kidlashicha, o'qish jarayoni faqat matnni tushunish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarda til birliklarini kontekstda anglash, nutqiy tajribani boyitish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim [1].

Shuningdek, S. Saydaliyev o'z ilmiy tadqiqotlarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishni talabalarning kasbiy yo'naltirilgan ta'limi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi. Uning fikricha, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'qish materiallari kasbiy faoliyatga mos tanlanishi va ular asosida tahliliy hamda reflektiv topshiriqlar tashkil etilishi zarur. Bu yondashuv talabalarni real pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bir qatorda, ularning metodik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar Jalolov va Saydaliyev tomonidan ilgari surilgan metodik qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ya'ni, bosqichli va kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish mashg'ulotlari talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki kasbiy fikrlash va pedagogik refleksiya ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda integrativ, kommunikativ va konstruktivistik yondashuvlarning uyg'unligi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda yuqori samaradorlikka ega. Bu yondashuvlar talabalarning mustaqil ta'lim olishga tayyorligini, kasbiy tayyorgarligini va pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'qish kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. O'qish kompetensiyasi nafaqat til ko'nikmalarining muhim tarkibiy qismi, balki bo'lajak mutaxassislarining kasbiy rivoji, mustaqil ta'lim olish qobiliyati hamda pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari o'qish kompetensiyasini maqsadli va tizimli rivojlantirish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi.

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan uch bosqichli o'qish modeli (pre-reading, while-reading, post-reading) asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning o'qish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini berdi. Ushbu model o'qish jarayonini mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etish, talabalarni matn bilan faol muloqotga jalb etish hamda o'qilgan materialni tahlil va refleksiya orqali mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ va konstruktivistik yondashuvlarning integratsiyasi yuqori samaradorlikka ega. Aynan shu jihat tadqiqot jarayonida o'qish faoliyatini kichik guruhlarda muhokama, tahliliy va ijodiy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish orqali amalda tasdiqlandi. Natijada talabalar nafaqat matn mazmunini anglash, balki uni baholash va kasbiy faoliyat bilan bog'lash ko'nikmalarini ham egalladilar.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib

xizmat qiladi. Xususan, kasbiy yo'naltirilgan matnlardan foydalanish, bosqichli o'qish strategiyalarini joriy etish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni tizimli qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish hamda kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. -Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B. 432.
2. Saydaliyev S.S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU, 2000. – B. 210.
3. Harmer J. How to Teach English. London: Longman, 2007. – P. 341.
4. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: CUP, 2014. – P. 236.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – P. 421.
6. Bruner J. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – P. 278.
7. Common European Framework of reference for language learning and teaching / Draft 1. - Strasbourg: Council of Europe, 1993. – P. 128.